

HISOR DAVLAT QO'RIQXONASI UMURTOQLI HAYVONLARI AYRIM TURLARINING MAVSUMIY DINAMIKASI

Begaliyev Behruz¹, Xujamqulov Bahrom²

¹ "Hisor" davlat qo'riqxonasi davlat tabiatni muhofaza qilish ilmiy-tadqiqot muassasasi ilmiy xodim.

² Qarshi davlat universiteti

Elektron pochta. behruzbegaliyev28@gmail.com

Annotatsion. Data on the lifestyle, habitat and breeding cycles of the fauna included in the International and the "Red Book" Of The Republic of Uzbekistan were analyzed on the territory of the Hisor State Reserve, and as a result, it was found that there was a change in the dynamics of reproduction in a positive way.

Hisor davlat qo'riqxonasi o'zbekistonning janubiy-sharqiy qismida, Qashqadaryo viloyatining Shaxrisabz, Yakkabog' va Qamashi tumanlari hududida, Hisor tog' tizmasining g'arbiy yonbag'irlarida, dengiz sathidan 1750 m dan 4366 m gacha balandlikda joylashgan.

Qo'riqxona janubiy-sharqda Surxondaryo viloyati, sharqda Tojikiston Respublikasi bilan chegaradosh.

Hisor davlat qo'riqxonasi 1983 yilda Qashqadaryo viloyatidagi ikki mustaqil Miroqi va Qizilsuv qo'riqxonalarini birlashtirish natijasida tashkil etilgan. Qo'riqxonaning umumiy yer maydoni - 80986,1 gektar bo'lib, to'rtta bo'limdan iborat. Bular: G'yelon bo'limi yer maydoni - 18838,1 gektar, Miraki bo'limi yer maydoni - 11821,0 gektar, Tanxozdaryo bo'limi yer maydoni - 20233,0 gektar, Qizilsuv bo'limi yer maydoni - 30094,0 gektar.

Qo'riqxona hududi ma'muriy jihatdan 17 ta sarhad, 54 ta aylanish bo'lakchasi -kvartallardan tashkil topgan.

Hisor davlat qo'riqxonasi hududida turli xildagi relyeflardan iborat bo'lib, balandligi 4400 metrgacha bo'lgan cho'qqilar, Hazrati Sulton, Xo'ja qirshivor, To'rtqo'ylik, Bibi o'lmas, Nomsiz cho'qqilari joylashgan bo'lib, ular Surxondaryo viloyatidagi Xo'japirpir ota, Xo'japiryak hamda, Osmon talash cho'qqilari bilan yonma-yon o'rnashgan. Ularning umumiy soni yettitan tashkil etadi.

Mazkur tog' cho'qqilarining etagida turgan odam cho'qqiga yaqin bo'lgan boshqa ikki yoki uchta cho'qqini albatta ko'ra oladi. Shuning uchun ularni "yetti aka-uka" ham deb yuritiladi.

Mamlakatimizning eng baland cho'qqisi - Nomsiz cho'qqi. Bu cho'qqiga 2021 yilda ilk bora chiqilgan. Unga hozirgi kungacha nom qo'yilmagan. Uning balandligi dengiz sathidan 4421 metrni tashkil qiladi.

Nomsiz cho'qqi ma'muriy jihatdan Hisor davlat qo'riqxonasining G'ilon bo'limida joylashgan.

Qo'riqxonada abadiy muzliklar ham mavjud bo'lib, Oqsuv daryosining sharqiy Oqsuv soyining yuqori qismida yirik Seversov muzligi joylashgan, uning maydoni 1515 gektar. Xoliqdod soyining yuqori qismida Botirboy muzligi joylashgan bo'lib, umumiy maydoni 1600 gektarni tashkil etadi.

Bugungi kunda Hisor davlat qo'riqxonasining hayvonot olamini o'rganish bo'yicha bir qancha ilmiy tadqiqot ishlari fenologik kuzatishlar shaklida olib borilmoqda.

Qo'riqxona hayvonot dunyosining bir qancha vakillarini har tomonlama o'rganish, kuzatish, tahlil etish maqsadida foto va videoga oluvchi yashirin kameralardan keng foydalanilmoqda.

Qo'riqxonaning hayvonot dunyosi bo'yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlardan ko'zlangan asosiy maqsad hayvonlar va qushlarning doimiy va mavsumiy sonlarini aniqlash, ularda uchraydigan biologik jarayonlarni - tullash va ko'payish davrini va ularning migratsion jarayonlarini tahlil etish bilan birga, doimiy va mavsumiy yashash joylarini, tarqalish areallarini, oziqlanish holatini o'rganishdan iborat.

Ushbu yo'nalishlar bo'yicha qo'riqxona hududiga 2022 yil 11 marotaba 90 kunlik, 2023 yil 17 marotaba 120 kunlik, 2024 yilning o'tgan davrida 103 marotaba 92 kunlik mavsumiy va doimiy ekspeditsiyalar uyushtirildi. Qizilsuv, Tanxozdaryo, G'yelon va Miraki bo'limlari hududida qo'yilgan 85 ta "Bushnell" rusumidagi yashirin foto-video qopqonlarga bir qancha yangi ma'lumotlar yig'ildi. Masalan, qor qoplari 2022 yilda 38 bosh, 2023 yilda 45 bosh, 2024 yilda 57 bosh individlarda tasvirga olindi. Bundan tashqari qo'riqxonada qor qoploniga qo'shimcha 16 tur hayvonlar foto qopqonlarga tasvirga tushdi. (1-jadval)

(1-jadval)

2024 yil yanvar-iyul oylarida qo'riqxona hududida qo'yilgan foto, video qopqonlarning chiplaridagi ma'lumotlar

t/r	Turlar	Hayvon va qushlar olingan fotosurat va video lavhalari soni	Shundan haqiqiy hayvon va qushlar soni	Erkak	Urg'ochi	Bolasi	Jinsi aniqlanmagan
1	Qo'ng'ir ayiq	136	50	19	11	20	
2	Jayra	55	21	8	6	7	
3	Qor qoplari	61	30	10	14	6	
4	Bo'ri	8	8	6	2	-	
5	Turkiston silovsini	13	9	4			
6	Tog' echkisi	336	311	50	131	120	
7	Tolay quyon	114	97	29	68	-	
8	To'ng'iz	194	154	112	25	17	

9	Kaklik	446	446	180	240	26	
10	Zag'izg'on	87	70	-	-	-	70
11	Qizil sug'ur	288	174	80	60	34	
12	Bo'z shaqshaqa	43	33	15	18		
13	Alp zog'chalari	162	155	-	-	-	155
14	Xulol	44	36	9	27	-	-
15	Qoya suvsari	36	29	-	-	--	29
16	Tulki	29	21	7	14	-	-
17	Sichqon (laska)	22	177	-	-	-	7
jami	2056	1649	532	618	228	275	

Hozirgi vaqtda Qizilsuv bo'limida 26 ta, Tanxozdaryo bo'limida 22 ta, Miraki bo'limida 20 ta, G'yelon bo'limida 16 ta, jami 85 ta "bushnell" rusumidagi foto va video qopqonlar qo'riqxonaning hududida ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish maqsadida ishlab turibdi. Bu sohada qo'riqlash bo'limi xodimlari bilan hamkorlikdagi ishlarimiz yo'lga qo'yilgan. Ayni damda mavsumiy jarayonlarni kuzatish maqsadida 75 ta kamera to'liq ishlab turibdi. Qolgan 10 ta foto va video qopqonlar turli omillar - yomg'ir va qor ta'sirida yaroqsiz holatga kelib qolgan. Joriy yilning yanvar-iyul oylarida qo'riqxona hududida qo'yilgan foto-video qopqonlarning chiplari olinib, undagi ma'lumotlar kompyuter dasturlari orqali tahlil qilindi.

(2-jadval)

Hayvon va qushlarning 2024 yil bahor mavsumidagi sonining holati

τ/p	Hayvon va qushlarning nomi	Yer maydoni ming ga.	Hayvon va qushlarning 2024 yil bahorgi soni
MSOP- TMHI- IUCN "Qizil kitobi"ga kiritilgan			
1.	qor qoplon	40000	57-59
2.	qizil sug'ur	40000	4558
3.	qora g'ajir	50000	129
O'zbekiston Qizil kitobi"ga kiritilgan			
1.	qo'ng'ir ayiq	75000	166
2	turkiston silovsini	40000	180
3	o'rta osiyo qunduzi	173	62
4.	boltayutar	65000	143
5.	burgut	40000	161
6.	lochin (sokol sapsan)	30000	46
7.	oq boshli qumoy	45000	158
Boshqa hayvonot olami vakillari			
1.	quyon	40000	3580
2.	tulki	40000	810
3.	cho'chqa	50000	906
4.	tog' echkisi	60000	3650
5.	bo'ri	30000	72
6.	jayra	20000	430
8.	xilol	55000	1016

2-jadvalda berilgan ma'lumotlardagi hayvon va qushlarning birinchi uchligi **MSOP- TMHI- IUCN** "Qizil kitobi"ga kiritilgan, ikkinchi qatordagi 7 ta tur O'zbekiston qizil kitobiga kiritilganlardir.

"Hisor" davlat qo'riqxonasida "Qizil kitobi"ga kiritilgan qushlarning yil davomida ko'payish diagrammasi



Yil
fasll
ari
bo'y
icha
ilmi
y
kuz
atuv
ishl
ari
qo'ri
qxo
nani
ng
G'ye
lon,
Mira
ki,
Tan

xozdaryo va Qizilsuv bo'limlarida amalga oshirildi.

Qo'riqxonada uchraydigan noyob va yo'qolib borayotgan, Xalqaro Qizil kitobga kiritilgan qor qoplani, qizil sug'ur, qora g'ajir, O'zbekiston "Qizil kitobi"ga kiritilgan qo'ng'ir ayiq, turkiston silovsini, o'rta osiyo qunduzi, bolta yutar, burgut, lochin va oq boshli qumoy qushlarning hayot tarzi to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Hisor davlat qo'riqxonasi hududida Xalqaro va O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitobi"ga kiritilgan hayvonot dunyosining hayot tarzi, yashash joylari va ko'payish davrlari to'g'risida ma'lumotlar tahlil etildi va natijada ko'payish dinamikasida ijobiy tomonga o'zgarish borligi aniqlandi.

Kelajakda qo'riqxonada uchraydigan «Qizil kitob»ga kiritilgan, lekin hozirgi paytda ro'yxatga olinmagan hayvonot dunyosining turlarini izlab topish, ularni ilmiy asosda o'rganish, qo'riqxonada tarqalish arealini, yashash joylarini aniqlash, biologik jarayolarini kuzatish ishlari olib borilishi ko'zda tutilgan.

Adabiyotlar ro'yxati.

1. Vazirlar Maxkamasining 2018 yil 7-noyabr 914-sonli qarori O'zbekiston Respublikasida xayvonot va o'simlik dunyosi obyektlarining davlat xisobi va monitoringini yuritish bo'yicha uslubiy qo'llanma.
2. N.M.Umarov, A.A.Grigoryans, Z.O.Ochilov, B.Oromov, R.I.Ibragimov, K.Yakubov, T.Aromov "Hisor davlat qo'riqxonasi" g. Tashkent, 2012 g., str 1-205;
3. B.Oromov, «Hisor davlat qo'riqxonasi» Chinor ENK. 1998 yil;
4. H.Tursunov, «Hayot», B.Oromov, «Hisor» Tabiatning noyob hududi Toshkent 1999 yil;
5. Bobonazarov, G. (2024). BIOXILMA-XILLIK QISQARISHI VA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI MUAMMOLARI. MODERN PROBLEMS AND PROSPECTS FOR ORGANIZING A HEALTHY LIFESTYLE AND PROPER NUTRITION, 1(01).
6. Boymurodov K. T. et al. Effect of hydrochemical indicators of Sangzor river water on mollusk population indicators // E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – T. 555. – C. 02002.
7. Babonazarov G. Y. et al. Economic Damage Caused by Scabies Itch Mite, Sarcoptes Scabiei (Acariformes: Sarcoptidae) to the Wool Production of Sheep // Journal of Pharmaceutical Negative Results. – 2022. – C. 2433-2436.